

## X. ISTE'MOL BOZORI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2024- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **6 045** tani tashkil etib, 2023- yil 1- iyulga nisbatan **70** taga ko'paygan (o'sish sur'ati **101,2** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **69** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5976** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (2024- yilning yanvar–iyun holatiga)



#### Yirik korxonalar

- O'sish sur'ati 66,5
- Ulushi 3,9



#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

- O'sish sur'ati 109,9
- Ulushi 94,6



#### Uyushmagan savdo (dehqon va chorva bozorlari)

- O'sish sur'ati 111,3
- Ulushi 19,2

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **6 057,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **107,4** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 236,6 mlrd. so'mni o'sish sur'ati (66,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5821,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,9 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 162,2 mlrd. so'mni o'sish sur'ati 111,3 % tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik  
biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining  
hajmi va o‘shish sur‘atlari**

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


| Shahar va tumanlar nomi | Jami (mlrd so‘m) | 2023 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da | Yirik korxonalar (mlrd so‘m) | 2023 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, (mlrd so‘m) | 2023 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da |
|-------------------------|------------------|--|------------------------------|--|--|--|
| <b>Xorazm viloyati</b>  | <b>6 057,8</b>   | <b>107,4</b>                                 | <b>236,6</b>                 | <b>66,5</b>                                  | <b>5 821,2</b>                                     | 110,2  |
| Urganch sh.             | 1 698,7          | 108,9  | 148,0                        | 64,7   | 1 550,6  | 116,5  |
| Xiva sh.                | 266,4            | 105,3  | 12,1                         | 93,9   | 254,3  | 105,9  |
| Bog‘ot                  | 317,4            | 107,6  | 7,9                          | 116,6  | 309,5  | 107,4  |
| Gurlan                  | 495,5            | 110,5  | 2,5                          | 83,9   | 493,0  | 110,7  |
| Qo‘shko‘pir             | 267,7            | 106,7  | 1,6                          | 75,2   | 266,1  | 106,9  |
| Urganch                 | 768,5            | 103,2  | 7,5                          | 31,9   | 761,0  | 105,6  |
| Hazorasp                | 629,7            | 107,4  | 20,8                         | 76,8   | 608,9  | 108,9  |
| Tuproqqal‘a             | 136,2            | 108,3  | 0,2                          | 145,4  | 136,0  | 108,2  |
| Xonqa                   | 379,6            | 104,2  | 2,4                          | 20,2   | 377,2  | 107,1  |
| Xiva                    | 209,0            | 104,6  | 11,9                         | 66,1   | 197,1  | 108,5  |
| Shovot                  | 456,8            | 110,0  | 12,8                         | 88,8   | 444,0  | 110,8  |
| Yangiariq               | 275,5            | 108,4  | 1,3                          | 84,7   | 274,2  | 108,5  |
| Yangibozor              | 156,9            | 110,5  | 7,7                          | 129,3  | 149,2  | 109,6  |

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Urganch shaxri (**116,5** %), Shovot tumani (**110,8** %), Gurlan tumani (**110,7** %) va Yangibozor tumanlarida (**109,6** %), chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi




## Yillar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

### Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-iyun, mlrd so‘m)




So‘nggi **5 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘shish sur‘ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **112,8 %** ni yoki **5 469,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati oylar kesimida (foizda) (2023- yil, 2024- yil yanvar-iyun oylari)




### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining ulushi




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida 28,0 % bilan 1 698,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida 2,2 % bilan 136,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi. 2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda oʻsish kuzatildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining hajmi (mlrd soʻm)



**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar subyektlarining hududlar kesimida ulushi, (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq, Gurlan va Qo'shko'pir tumanlari (99,5 %) mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (12,0 %), Xiva shahri (5,8 %) Xiva tumani (5,6 %), Shovot tumani (4,3 %) va Yangibozor tumanida (4,1 %) kuzatildi.

**Aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi  
hajmi va o'sish sur'atlari**

| Shahar va tumanlar nomi | Hajmi,<br>ming so'm | O'sish sur'ati,<br>foizda |
|-------------------------|---------------------|---------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b>  | <b>3 025,3</b>      | <b>105,4</b>              |
| Urganch sh.             | 11 051,9            | 106,9                     |
| Xiva sh.                | 2 690,9             | 103,5                     |
| Bog'ot                  | 1 796,0             | 105,5                     |
| Gurlan                  | 3 142,4             | 108,6                     |
| Qo'shko'pir             | 1 465,5             | 104,7                     |
| Urganch                 | 3 582,7             | 101,1                     |
| Hazorasp                | 3 044,8             | 105,4                     |
| Tuproqqal'a             | 2 285,0             | 105,9                     |
| Xonqa                   | 1 906,6             | 102,3                     |
| Xiva                    | 1 344,9             | 102,6                     |
| Shovot                  | 2 525,1             | 108,0                     |
| Yangiariq               | 2 230,9             | 106,5                     |
| Yangibozor              | 1 690,5             | 108,6                     |

2024- yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 025,3** ming so'mni (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,4** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (11 051,9 ming so'm), Urganch (3 582,7 ming so'm) va Gurlan (3 142,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 398 tani tashkil etib, 2023- yil 1- iyul holatiga nisbatan 65 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 396 tani tashkil qildi


2024- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **199,4** mlrd. so'mga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan **9,7** %ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,6** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

| Shahar va tumanlar nomi | Jami mlrd so'm | 2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd so'm | 2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd so'm | 2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|----------------|---|----------------------------|---|---|---|
| <b>Xorazm viloyati</b>  | <b>199,4</b>   | <b>109,7</b>                                    | <b>12,8</b>                | <b>2,1 m.</b>                                   | <b>186,6</b>                              | <b>106,2</b>                                    |
| Urganch sh.             | 80,3           | 103,6   | 5,2                        | 86,2  | 75,1                                      | 105,1   |
| Xiva sh.                | 11,3           | 108,1   | -                          | -   | 11,3                                      | 108,1   |
| Bog'ot                  | 7,6            | 106,0   | -                          | -   | 7,6                                       | 106,0   |
| Gurlan                  | 5,2            | 107,1   | -                          | -   | 5,2                                       | 107,1   |
| Qo'shko'pir             | 2,8            | 107,0   | -                          | -   | 2,8                                       | 107,0   |
| Urganch                 | 35,2           | 133,1   | 7,6                        | -   | 27,6                                      | 104,4   |
| Hazorasp                | 7,6            | 109,3   | -                          | -   | 7,6                                       | 109,3   |
| Tuproqqal'a             | 3,8            | 112,8   | -                          | -   | 3,8                                       | 112,8   |
| Xonqa                   | 14,0           | 108,6   | -                          | -   | 14,0                                      | 108,6   |
| Xiva                    | 4,3            | 112,9   | -                          | -   | 4,3                                       | 112,9   |
| Shovot                  | 13,5           | 104,5   | -                          | -   | 13,5                                      | 104,5   |
| Yangiariq               | 7,4            | 108,0   | -                          | -   | 7,4                                       | 108,0   |
| Yangibozor              | 6,4            | 107,9   | -                          | -   | 6,4                                       | 107,9   |


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2024- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **2 510,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,6** foizga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 151,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **168,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **359,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **24,4** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so'm)



### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda







**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari  
ulgurji va chakana savdo aylanmasi**

| <b>Shahar va tumanlar nomi</b> | <b>Hajm,<br/>mlrd so‘m</b> | <b>Ulushi,<br/>foizda</b> |
|--------------------------------|----------------------------|---------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b>         | <b>2 510,5</b>             | <b>91,4</b>               |
| Urganch sh.                    | 2 187,4                    | 88,2                      |
| Xiva sh.                       | 25,2                       | 119,7                     |
| Bog‘ot                         | 45,8                       | 119,6                     |
| Gurlan                         | 15,9                       | 2,5 m.                    |
| Qo‘shko‘pir                    | 8,0                        | 119,1                     |
| Urganch                        | 30,6                       | 115,3                     |
| Hazorasp                       | 88,2                       | 119,1                     |
| Tuproqqal‘a                    | 8,2                        | 117,6                     |
| Xonqa                          | 47,4                       | 120,0                     |
| Xiva                           | 3,9                        | 115,8                     |
| Shovot                         | 17,8                       | 118,2                     |
| Yangiariq                      | 22,6                       | 118,9                     |
| Yangibozor                     | 9,5                        | 119,7                     |

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (2 187,4 mlrd. so'm), Hazorasp (88,2 mlrd. so'm) va Xonqa (47,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, Kichik biznes va mikrofirmalar

2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 280 tani tashkil etib, 2023- yil 1- iyul holatiga nisbatan 189 taga ko'paygan, o'sish sur'ati 109,0 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 252 tani tashkil qildi.

| Shahar va tumanlar nomi | Jami mlrd so'm | 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd so'm | 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd so'm | 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|----------------|---|----------------------------|---|---|---|
| <b>Xorazm viloyati</b>  | <b>3 172,0</b> | <b>103,3</b>                                    | <b>180,7</b>               | <b>31,7</b>                                     | <b>2 991,3</b>                            | <b>119,7</b>                                    |
| Urganch sh.             | 1 690,1        | 117,0   | 20,6                       | 24,1  | 1 669,5                                   | 122,8   |
| Xiva sh.                | 91,8           | 131,9   | 7,2                        | -   | 84,6                                      | 121,5   |
| Bog'ot                  | 40,9           | 66,5  | 0,5                        | 1,8   | 40,4                                      | 118,2   |
| Gurlan                  | 84,0           | 58,7  | 8,6                        | 11,1  | 75,3                                      | 116,0   |
| Qo'shko'pir             | 35,8           | 121,2   | 0,2                        | 3,2 m.  | 35,6                                      | 120,7   |
| Urganch                 | 588,0          | 81,5  | 116,4                      | 37,8  | 471,5                                     | 114,0   |
| Hazorasp                | 42,9           | 138,9   | 7,7                        | 42,4 m.   | 35,2                                      | 114,8   |
| Tuproqqal'a             | 43,5           | 120,8   | 0,1                        | 2,8 m.  | 43,4                                      | 120,6   |
| Xonqa                   | 134,6          | 92,5  | 1,3                        | 4,5   | 133,2                                     | 114,5   |
| Xiva                    | 191,7          | 119,3   | 16,2                       | 1,5 m.  | 175,5                                     | 117,0   |
| Shovot                  | 52,5           | 116,4   | 0,2                        | 2,2 m.  | 52,3                                      | 116,2   |
| Yangiariq               | 115,2          | 89,1  | 0,4                        | 1,3   | 114,8                                     | 116,0   |
| Yangibozor              | 61,0           | 116,7   | 1,2                        | 96,4  | 59,8                                      | 117,2   |

Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 172,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga o'sdi.

### Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, 2991,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,3 % ni tashkil qildi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Chakana savdo** - savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

**Chakana tovar aylanmasi** - tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochoyklari, kredit kartochoyklari, banklarning hisob heklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

**Umumiy ovqatlanish** - yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

**Umumovqatlanish aylanmasi** - joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

**Tovar zaxiralari** - chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

**Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi** - umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich - jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

**Ulgurji savdo** - tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

**Iste'mol tovarlari** - yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

**Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar** - ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** - tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

**Tovar zaxiralari** - tovar muomalasi doirasida bo'lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

**Tovar aylanmasining tovar tuzilishi** - tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich - jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat.